Tadqiqotning metodologik xususiyati shundan iboratki, hozirgi bosqichda yashil iqtisodiyotning YaIM o'sishiga qo'shayotgan aniq miqdoriy ulushini ajratib ko'rsatish uchun uzoq muddatli va tarmoqlar kesimidagi ochiq statistik qatorlar bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Shu sababli maqolada "ta'sir" tushunchasi bevosita sababiy ekonometrik bog'liqlik sifatida emas, balki iqtisodiy o'sishning resurs samaradorligi, ekologik barqarorlik, investitsion faollik va tarmoq modernizatsiyasi orqali sifat jihatidan mustahkamlanishi sifatida talqin qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yil bo'yicha rasmiy ma'lumotlar O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror makroiqtisodiy o'sish sur'atlari saqlanib qolganini ko'rsatadi. 2025-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 7,7 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, qurilish ishlari hajmi 14,0 foizga, xizmatlar sohasi 8,5 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi 4,4 foizga o'sgan. Eksport hajmi 33,8 mlrd AQSH dollariga yetgan, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 43,1 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025b).

2025-yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha ma'lumotlar ham iqtisodiy o'sishning yil davomida izchil shakllanganini tasdiqlaydi. Xususan, ushbu davrda yalpi ichki mahsulot 7,2 foizga, sanoat ishlab chiqarishi

3 <https://lex.uz/docs/-4539502>

4 <https://lex.uz/docs/-6303230>

5 <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>



6,6 foizga, qurilish ishlari hajmi 10,7 foizga, xizmatlar sohasi 8,2 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi 4 foizga o'sgan. Eksport hajmi 10,3 mlrd AQSH dollariga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 21 mlrd AQSH dollariga yetgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025a).

Mazkur makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yashil iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, iqtisodiy o'sishning sifati alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni iqtisodiy o'sish faqat ishlab chiqarish, eksport va investitsiyalar hajmining ortishi bilan emas, balki ushbu o'sishning energiya sarfi, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, ekologik yuklama va tarmoq samaradorligi bilan qanday uyg'unlashgani orqali ham baholanishi lozim (1-jadval).

1-jadval. 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy o'sish va yashil iqtisodiyot omillari o'rtasidagi bog'liqlik

Ko'rsatkich	2025-yil birinchi yarim yillik natijasi	2025-yil yakuniy natijasi	Iqtisodiy mazmuni	Yashil iqtisodiyot bilan bog'liqligi	Tahliliy xulosa
Yalpi ichki mahsulot o'sishi	7,2 foiz	107,7 foiz	Umumiy iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish hajmining oshishi	YalM o'sishini energiya samarali tarmoqlar va resurs tejamkorlik bilan uyg'unlashtirish zarur	O'sish barqaror, ammo uning sifati yashil indikatorlar orqali baholanishi kerak
Sanoat ishlab chiqarishi	6,6 foiz	106,8 foiz	Ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi	Energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va ESG standartlari bilan bog'liq	Sanoat o'sishi yashil modernizatsiya bilan uyg'unlashishi lozim
Qurilish ishlari	10,7 foiz	114,0 foiz	Infratuzilmaviy rivojlanish va investitsion faollik	"Yashil bino", energiya samarador qurilish va ekologik materiallar bilan bog'liq	Qurilishdagi yuqori o'sish yashil qurilish standartlarini joriy etish imkoniyatini oshiradi
Xizmatlar sohasi	8,2 foiz	108,5 foiz	Raqamli xizmatlar, moliyaviy xizmatlar va ichki bozor faolligi	Ekologik konsalting, nomoddiy yashil moliyalashtirish va raqamli boshqaruv xizmatlari rivojlanishi mumkin	Xizmatlar sektori yashil iqtisodiyot uchun institutsional infratuzilma yaratadi
Qishloq xo'jaligi	4 foiz	104,4 foiz	Oziq-ovqat xavfsizligi va agrar ishlab chiqarish barqarorligi	Suv tejamkor texnologiyalar, yer resurslarini muhofaza qilish va iqlimga moslashgan agrotexnologiyalar bilan bog'liq	Agrar o'sish tejamkor va resurs boshqaruviga bog'liq
Eksport hajmi	10,3 mlrd AQSh dollari	33,8 mlrd AQSh dollari	Tashqi bozorlarda iqtisodiy faollik va mahsulot raqobatbardoshligi	Eksport mahsulotlarining ekologik standartlarga mosligi, uglerod izi va ESG talablari muhim	Yashil standartlar eksport raqobatbardoshligini kuchaytiradi
Xorijiy investitsiyalar	21 mlrd AQSh dollari	43,1 mlrd AQSh dollari	Iqtisodiyotga kapital oqimining kuchayishi	Qayta tiklanuvchi energetika, suv tejash, ekologik infratuzilma va energiya samarador loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati	Investitsiyalar yashil transformatsiya uchun asosiy moliyaviy manba bo'lishi mumkin

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil birinchi yarim yillik va 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida 2025-yilda qayd etilgan o'sish ko'rsatkichlari yashil transformatsiyani jadallashtirish uchun muhim iqtisodiy asos yaratmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining o'sishi energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ESG standartlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi. Qurilish sohasidagi yuqori o'sish sur'atlari energiya tejamkor binolar, ekologik qurilish materiallari va "yashil bino" standartlarini keng qo'llashning dolzarbligini oshirmoqda. Qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari esa suv resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, O'zbekiston sharoitida agrar tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi suv tejoychi texnologiyalar qamrovi, hosildorlik barqarorligi va iqlim o'zgarishiga moslashuvchanlik darajasiga tayanadi.

Eksport va investitsiyalar ko'rsatkichlari yashil iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy ahamiyatini ham yaqqol namoyan etadi. Jahon bozorlarida ESG talablari, uglerod izi, ekologik standartlar va barqaror ishlab chiqarish mezonlari tobora kuchayib borayotgan sharoitda eksport salohiyati ishlab chiqarishning ekologik talablarga mosligi bilan chambarchas bog'lanmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi esa qayta tiklanuvchi energetika, suv tejoychi texnologiyalar, ekologik infratuzilma va energiya samarador ishlab chiqarish loyihalarini kengaytirish uchun qulay investitsion muhit shakllanayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining yana bir muhim yo'nalishi yashil iqtisodiyot bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar va ularning iqtisodiy ahamiyatini baholash bilan bog'liqdir. 2025-yil davlat dasturi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suv tejoychi texnologiyalarni kengaytirish, "Yashil makon" loyihasini amalga oshirish, ekologik infratuzilmani rivojlantirish, "Yashil bino" sertifikatlash tizimini joriy etish, ESG hisobotlari hamda yashil moliyalashtirish instrumentlarini takomillashtirish bo'yicha qator ustuvor vazifalar belgilangan<sup>6</sup>.

2025-yil birinchi yarim yilligi bo'yicha hisobotlarda "Yashil makon" loyihasi doirasida 137 mln tup daraxt va buta ko'chatlari ekilgani, 55 ta "yashil bog" tashkil etilgani hamda 126,2 ming gektar maydonda "yashil qoplama" himoya o'rmonzorlari barpo etilgani qayd etilgan. Shu bilan birga, 547,9 ming gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinib, natijada 705 mln kub metr suv iqtisod qilingani ta'kidlangan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025a).

2025-yil yakunlari bo'yicha esa 155 ta tuman va shaharda "yashil bog'lar" hamda "yashil jamoat parklari" tashkil etilgani, 251 ming gektar maydonda "yashil qoplama" himoya o'rmonzorlari barpo etilgani qayd etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025b) (2-jadval).

## 2-jadval. Yashil iqtisodiyot bo'yicha amaliy natijalar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sir kanallari

Yo'nalish	Belgilangan vazifa yoki natija	2025-yil birinchi yarim yillik natijasi	2025-yil yakuniy natijasi	Iqtisodiy ahamiyati	Barqaror o'sishga ta'siri
Qayta tiklanuvchi energiya	4,5 GVt quyosh va shamol elektr stansiyalari; 785 MVt quyosh panellari; 225 MVt GES	Rejalashtirish va ishga tushirish jarayonlari davom etgan	Yakuniy ijro ko'rsatkichlari alohida energetika hisobotlari asosida aniqlashtiriladi	Energiya ta'minoti diversifikatsiyalanadi; energiya xavfsizligi oshadi	Iqtisodiy o'sishning energetik bazasi ekologik jihatdan xavfsizlashadi
Suv tejoychi texnologiyalar	Suv tejoychi texnologiyalar qamrovini kengaytirish	547,9 ming gektar; 705 mln kub metr suv iqtisod qilindi	Yakuniy raqam alohida tarmoq hisobotlari asosida aniqlashtiriladi	Suv sarfi kamayadi; qishloq xo'jaligi barqarorligi oshadi	Agrar o'sishning resurs bazasi mustahkamlanadi
"Yashil makon" va yashil hududlar	Arxat ekish, yashil bog'lar, himoya o'rmonzorlari	137 mln tup daraxt va buta; 55 ta yashil bog'; 126,2 ming gektar yashil qoplama	155 ta tuman va shaharda yashil bog'lar; 251 ming gektar yashil qoplama	Ekologik infratuzilma rivojlanadi; aholi yashash muhiti yaxshilanadi	Inson kapitali, salomatlik va hududiy jozibadorlik kuchayadi
Qurilish va "Yashil bino"	Yangi binolarda "Yashil bino" sertifikatini joriy etish	Normativ va tashkiliy mexanizmlar shakllantirilmoqda	Sertifikatlash natijalari bo'yicha keyingi monitoring talab etiladi	Kommunal xarajatlar kamayadi; energiya samarador qurilish bozori rivojlanadi	Qurilishdagi o'sish ekologik mazmun kasb etadi

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-16-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>




Yashil moliyalashtirish	Yashil moliyalashtirish milliy dasturi, xalqaro kredit va grantlar	Institutsional tayyorgarlik va loyiha shakllantirish jarayoni	Keyingi davrda moliyalashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi	Yashil loyihalar uchun moliyaviy baza kengayadi	Investitsiyalar ekologik samarali yo'nalishlarga buriladi
Ekologik monitoring	MRV, emissiya monitoringi, shaffoflik tizimi	Tizimni joriy etish bo'yicha tashkiliy ishlar davom etmoqda	Milliy shaffoflik tizimi asosida ma'lumot takomillashtiriladi	Qaror qabul qilish uchun ishonchli ekologik axborot shakllanadi	Yashil iqtisodiyot natijalarini o'lchash imkoniyati kuchayadi

Manba: PF-16, 2025-yil birinchi yarim yillik va 2025-yil yakunlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval natijalari yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlarda shakllanayotganini ko'rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlari, energiya xavfsizligi hamda sanoat raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sanoatda energiya samaradorligining oshishi mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli energiya samaradorligi yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Suv tejavchi texnologiyalar agrar sektor uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Suv resurslari cheklangan sharoitda qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi suvdan foydalanish samaradorligiga bevosita bog'liqdir. 547,9 ming gektar maydonda suv tejavchi texnologiyalar joriy etilgani va natijada 705 mln kub metr suv iqtisod qilingani qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, hosildorlik barqarorligini ta'minlash hamda hududiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, "Yashil makon" loyihasi va yashil hududlarning kengayishi ekologik infratuzilma, inson kapitali va hududiy rivojlanish orqali iqtisodiy o'sishga bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

ESG standartlari va yashil moliyalashtirish yashil iqtisodiyotning institutsional hamda investitsion yo'nalishlarini shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi. ESG standartlari korxonalar faoliyatida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlarini mustahkamlash, korporativ shaffoflikni oshirish va investorlar ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi. Yashil moliyalashtirish instrumentlari esa kapital oqimini ekologik samarador loyihalarga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sish tarkibining sifat jihatdan takomillashuviga yordam beradi (1-rasm).



Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

1-rasm. Yashil iqtisodiyot omillarining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmi

1-rasmda yashil iqtisodiyot omillarining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmi to'rt bosqichli tizim asosida ifodalangan. Birinchi bosqichda energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv tejavchi texnologiyalar, ESG standartlari, yashil infratuzilma va yashil investitsiyalar yashil iqtisodiyotning asosiy tarkibiy omillari sifatida ajratib ko'rsatilgan. Ushbu omillar iqtisodiy o'sishning ekologik va resurs tejamkor modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Ikkinchi bosqichda mazkur omillarning iqtisodiyotga bevosita ta'siri namoyon bo'ladi. Xususan, energiya va resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga, energiya xavfsizligini mustahkamlashga va suv resurslarini tejashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ESG standartlarining joriy etilishi korporativ shaffoflikni kuchaytiradi, investitsion ishonchni oshiradi hamda ekologik xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

Uchinchi bosqichda ushbu ta'sirlar iqtisodiyot tarmoqlarida amaliy natijalarga aylanadi. Natijada sanoatning raqobatbardoshligi oshadi, qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligi kuchayadi, qurilish sohasida ekologik yondashuvlar kengayadi, eksport salohiyati mustahkamlanadi va investitsion jozibadorlik ortadi. Bu esa iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi va innovatsion rivojlanishini rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Yakuniy bosqichda esa ushbu jarayonlar resurs tejamkor iqtisodiy o'sish, past uglerodli rivojlanish, ekologik xavfsizlik, aholi farovonligi va uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishning faqat ekologik yo'nalishi emas, balki uning sifatini belgilovchi kompleks rivojlanish modeli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishning qo'shimcha ekologik elementi emas, balki uning sifat jihatdan yangi bosqichini shakllantiruvchi muhim tarkibiy omilga aylanayotganini ko'rsatadi. 2025-yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari izchil davom etayotganini tasdiqlasa, yashil iqtisodiyot doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ushbu o'sishni resurs tejamkor, ekologik xavfsiz va uzoq muddatli barqaror rivojlanish modeli bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sishga bevosita, tezkor va bir yo'nalishli ta'sir ko'rsatadigan jarayon emas. Aksincha, ushbu ta'sir iqtisodiy, ekologik va institutsional omillarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali shakllanadi. Yashil iqtisodiyot omillari dastlab resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, energiya va suv xavfsizligini mustahkamlaydi hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi. Keyingi bosqichda esa ushbu omillar iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan barqarorlashuviga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv UNEP, OECD va Jahon banki tomonidan ilgari surilgan yashil o'sish konsepsiyalari bilan uyg'unlik kasb etadi (UNEP, 2011; OECD, 2011; World Bank, 2012).

O'zbekiston tajribasida yashil iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri, avvalo, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali namoyon bo'lmoqda. Sanoat, qurilish, xizmatlar va transport tarmoqlarining kengayishi energiyaga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Shu sababli energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, sanoatda energiya samaradorligini kuchaytirish va YalMning energiya sig'imini kamaytirish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining o'sishi yashil modernizatsiya jarayonlarini yanada dolzarb etmoqda. Sanoat iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lishi bilan birga, energiya sarfi, emissiyalar, chiqindilar va xomashyo iste'moli yuqori bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu bois sanoatda energiya samarador texnologiyalarni keng joriy etish, ESG standartlarini qo'llash, ekologik audit tizimlarini takomillashtirish hamda emissiyalar monitoringini rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha olingan natijalar O'zbekiston uchun suv resurslaridan samarali foydalanish eng ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoiti, sug'oriladigan dehqonchilikka yuqori darajada bog'liqligi hamda iqlim o'zgarishi omillari suv tejovchi texnologiyalarni strategik ahamiyatga ega omilga aylantirmoqda. Suv resurslarini tejash nafaqat ekologik samaradorlikni ta'minlaydi, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining uzluksizligi, oziq-ovqat xavfsizligi, hududiy bandlik va fermer xo'jaliklari daromadlarining barqaror o'sishiga ham xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga ta'sirida investitsiyalar alohida o'rin tutadi. Xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi yashil transformatsiyani jadallashtirish uchun muhim moliyaviy imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarning hajmi bilan bir qatorda ularning tarkibi va yo'nalishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar investitsiyalar energiya samarador ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv tejovchi texnologiyalar, ekologik infratuzilma, chiqindilarni qayta ishlash va yashil qurilish loyihalariga yo'naltirilsa, ular iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan barqarorlashuviga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur tizim qaysi loyiha yoki faoliyat turi yashil mezonlarga mos kelishini aniqlash hamda moliyaviy resurslarni ekologik samarador yo'nalishlarga yo'naltirishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda<sup>7</sup>.

7 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023-yildagi Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 561-sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6644013>



Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda "miqdoriy o'sish" va "sifatli o'sish" tushunchalarini aniq farqlash zarur. Miqdoriy o'sish yalpi ichki mahsulot, sanoat, qurilish, xizmatlar, eksport va investitsiyalar hajmining ortishi bilan ifodalanadi. Sifatli o'sish esa ushbu ko'rsatkichlarning qanday resurslar hisobiga shakllangani, ularning ekologik xavfsizligi, ijtimoiy samaradorligi va uzoq muddatli barqarorligi bilan belgilanadi.

Hozirgi bosqichda yashil iqtisodiyotning YaIM o'sishiga aniq miqdoriy ulushini ajratib ko'rsatish murakkab hisoblanadi. Buning uchun uzoq muddatli statistik qatorlar, tarmoqlar kesimidagi energiya sarfi, emissiyalar, suv tejalishi, yashil investitsiyalar, ESG hisobotlari, yashil ish o'rinlari va hududiy ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha ochiq hamda solishtiriladigan ma'lumotlar bazasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan milliy shaffoflik tizimi va MRV (Monitoring, Reporting and Verification) mexanizmlarining joriy etilishi yashil iqtisodiyot samaradorligini baholash tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirishga xizmat qilmoqda<sup>8</sup>.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlanishi iqtisodiy o'sishning yangi sifat bosqichini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Energiya samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari energiya xavfsizligini mustahkamlaydi, suv tejovchi texnologiyalar agrar sektorning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, ESG standartlari korporativ shaffoflik va investitsion ishonchni kuchaytiradi, yashil infratuzilma esa inson kapitali va hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlanishining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri makroiqtisodiy va tarmoq ko'rsatkichlari asosida kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishdan alohida ekologik yo'nalish emas, balki iqtisodiy o'sishning sifatini belgilovchi muhim tarkibiy omil sifatida shakllanmoqda. O'zbekiston sharoitida ushbu ta'sir energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv tejovchi texnologiyalar, ESG standartlari, yashil infratuzilma, ekologik monitoring va yashil investitsiyalar orqali namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda yashil iqtisodiyot O'zbekiston sharoitida iqtisodiy o'sishning alohida ekologik qo'shimchasi sifatida emas, balki uning sifat jihatidan barqarorligini ta'minlovchi kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida asoslab berildi. Mazkur mexanizm energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, suv tejash, ESG standartlari, yashil infratuzilma va investitsion faollik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali yoritildi.

2025-yil bo'yicha rasmiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari izchil davom etayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu o'sishning uzoq muddatli barqarorligi energiya va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, sanoat va qurilish tarmoqlarida ekologik standartlarning joriy etilishi, shuningdek investitsiyalarning qay darajada yashil loyihalarga yo'naltirilishi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy xulosasi shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy o'sishga to'g'ridan to'g'ri emas, balki bir nechta o'zaro bog'liq mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Energiya samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi va sanoat raqobatbardoshligini oshiradi; qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiyotning energetik xavfsizligini mustahkamlaydi; suv tejovchi texnologiyalar agrar sektor barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini qo'llab-quvvatlaydi; ESG standartlari hamda ekologik monitoring korporativ shaffoflikni, investorlar ishonchini va xalqaro bozorlarga moslashuvchanlikni kuchaytiradi; yashil infratuzilma esa aholi farovonligi, hududiy jozibadorlik va inson kapitali rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda yashil iqtisodiyot omillari makroiqtisodiy va tarmoq ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq holda baholandi. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyotni faqat ekologik loyiha yoki tabiatni muhofaza qilish chorasi sifatida emas, balki sanoat modernizatsiyasi, agrar barqarorlik, energiya xavfsizligi, investitsion jozibadorlik va eksport raqobatbardoshligini mustahkamlovchi iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishning resurs tejamkor, energiya samarador, ekologik xavfsiz va ijtimoiy jihatdan barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli kelgusida yashil iqtisodiyot siyosatini makroiqtisodiy siyosat, sanoat siyosati, investitsiya siyosati, qishloq xo'jaligi siyosati va hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uzviy uyg'unlikda davom ettirish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

8 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024-yildagi "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 800-sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7245895>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-6303230>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-16-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023-yildagi Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 561-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6644013>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024-yildagi "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 800-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-7245895>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil birinchi yarim yilligida davlat dasturi ijrosi yuzasidan hisoboti materiallari. – Toshkent, 2025.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil yakunlari bo'yicha davlat dasturi ijrosi yuzasidan hisoboti materiallari. – Toshkent, 2025.
8. OECD. Towards Green Growth. – Paris: OECD Publishing, 2011.
9. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – United Nations Environment Programme, 2011.
10. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. – Washington, DC: World Bank, 2012.
11. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. Yashil iqtisodiyot: darslik. – Toshkent, 2024.
12. Turobova H.R., Kadirova M.M. Yashil iqtisodiyot: o'quv qo'llanma. – Buxoro: Kamolot nashriyoti, 2025.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (2)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---